

O'ZBEK SHEVALARI LUG'ATLARINING QIYOSIY TAVSIFI

Turdaliyeva Sayyora Mamatali qizi
Abduraxmonov Abduvali Abdumalik o'g'li

Termiz davlat universiteti
O'zbek filologiyasi fakulteti talabalari
Gmail: abduraxmonovabduvali90@gmail.com
Tel: 91 910 03 01
<https://doi.org/10.5281/zenodo.15332055>

Annotatsiya

Ushbu maqolada o'zbek shevalari asosida yozilgan lug'atlarning o'xshash va farqli tomonlari, ularning bugungi kundagi ahamiyati hamda lug'atlarning boyishiga yordam beruvchi takliflar haqida yoritib o'tilgan.

Kalit so'zlar: o'zbek shevalari, qiyosiy metod, lahja, izohli lug'at, fonetik, leksik, lakuna, ilustrativ misollar.

Abstract

This article discusses the similarities and differences of dictionaries based on Uzbek dialects, their importance today, and suggestions for enriching dictionaries.

Keywords: Uzbek dialects, comparative method, dialect, explanatory dictionary, phonetic, lexical, lacuna, illustrative examples.

Аннотация

В статье рассматриваются сходства и различия словарей, составленных на основе узбекских диалектов, их значение сегодня и предложения по обогащению словарей.

Ключевые слова: узбекские диалекты, сравнительный метод, диалект, толковый словарь, фонетический, лексический, лакуна, иллюстративные примеры.

Tilga muhabbat har bir kishiga ona allasi kabi go'daklik chog'idan singib boradi. O'z ona tilisini asrash esa har bir shaxsning asosiy burchlaridan biridir. Chunki ona tili millat ko'zgusi. Ona tilisi va millatini asray olmagan xalq esa eng qashshoq xalqqa aylanib qoladi. Mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan so'ng, o'zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi tilimizning ravnaqi uchun asosiy vazifani bajardi. Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 20-oktyabrda "Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PF-6084-son Farmoni tilshunoslik sohasida yanada ko'proq ilmiy va amaliy tadqiqot ishlarining olib borilishiga turtki bo'ldi. Shu tadqiqotlar ichida dialektologiya yo'nalishiga taalluqli ishlarni ham ko'rishimiz mumkin.

Jahon tilshunosligida dialektologiya yo'nalishi fan sifatida Germaniyada XVII asrning oxirlarida shakllangan. O'zbek tilshunosligida ushbu sohaga oid tadqiqotlar XX asr boshlarida boshlangan edi. Bu tadqiqotlar rus olimlari E.D.Polivanov, K.K.Yudaxin va I.I.Zarubin kabi olimlar tomonidan olib borilgan. Keyinchalik esa o'zbek tilshunos olimlari T.Yo'ldoshev, S.Ibragimov, Q.Muhammadjonov, A.Ishayev, Sh.Abdurahmonov, F.Musayeva va boshqalar o'zbek shevalarining fonetik, leksik, grammatik xususiyatlarini o'rganib, o'z tadqiqotlarini olib borishgan. " O'zbek dialektologiyasi" o'zbek shevalarini o'rganadigan fandir. Dialektologiya so'zi " grek " tilidan olingan bo'lib, shevalar, dialektlar va lahjalar to'g'risidagi bilim degan ma'noni bildiradi. O'zbek dialektologiyasi o'zbek shevalarining fonetik, leksik va grammatik xususiyatlarini, uning shakllanish va tarqalishi chegaralarini o'rganadi. Shevalar har bir milliy tilning asosini tashkil etadi hamda u milliy-ma'naviy qadriyatimiz hisoblanadi. Sheva forscha " ravish, tarz, yo'sin " degan ma'nolarni bildirib, fanda biror tilning o'ziga xos leksik, fonetik va grammatik xususiyatlari bilan farqlanib turadigan kichik territoriyaga oid qismini anglatadi.


O'zbek dialektologiyasi bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar asosida bir necha lug'atlar ham tuzilgan. Bulardan birinchisi 1971-yilda filologiya fanlari doktori Sh.Abdurahmonov, filologiya fanlari kandidatlari A.Ishayev, Sh.Nosirov, H.Uzoqov va kichik ilmiy xodim D.Abdurahmonovlar tomonidan tuzilgan " O'zbek xalq shevalari lug'ati" dir. Lug'atda O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston SSRning janubiy tumanlari, Qoraqalpog'iston o'zbeklarining uchta lahja shevalariga oid materiallar mavjud. Bu kitobda eng ko'p tadqiq etilgani Samarqand, Xorazm, Namangan viloyatlariga xos bo'lgan shevalardir. Lug'atga kiritilgan shevaga xos so'zlarning asosan, leksik xususiyatlariga ko'proq e'tibor berilgan. Fonetik farqlanuvchi so'zlar esa juda kam miqdorni tashkil etadi. Bu lug'atdagi so'zlar krill yozuviga asoslangan eski transkripsiyada berilgan bo'lib, ularning har biriga illustrativ misollar hududlari bilan berib o'tilgan.

Namuna: абай (Shimoliy Xorazm) пуписа "угроза, окрик": мана абай этмэ (Mang'it).

Bundan tashqari, berilgan bosh so'z bir necha ma'noni bildirsa, u vaqtda bu ma'nolarning har biri 1,2,3 arab raqamlari bilan ko'rsatilgan: йашулли (Xorazm)

1. Оксокол.
2. Рахбар.

Ushbu lug'atda Jizzax va Navoiy viloyatlari shevasiga xos so'zlardan manbaga kiritilmagan. Bu hududlarni ham shevasini qo'shimcha qilish kitobni



yanada qiymatini oshirgan bo'lardi, menimcha. Kitobda bulardan tashqari, quyidagi ma'lumotlarni ham olsangiz bo'ladi:

1. O'zbek shevalari haqida umumiy ma'lumot.
2. O'zbek tilining dialektologik atlasini yaratish haqida qarashlar.
3. O'zbek lahjalarining o'xshash va farqli jihatlari haqida.
4. O'zbek shevalaridagi qarindoshlik shevalari kabi mavzular bilan tanishishingiz mumkin.

Shunday qilib, bu lug'at barcha foydalanuvchilar uchun juda qulay va sifatli tuzilgan manbalardan biriga aylangan desak, adashmaymiz. Shu bilan birga boshqa dialektologiya yo'nalishiga oid leksikografik tadqiqotlar uchun ham asos vazifasini bajarib kelmoqda.

O'zbek tilshunosligida dialektologik so'zlar lug'atining yana bittaga ko'payishiga o'z hissasini qo'shgan tadqiqotchilardan biri " O'zbek xalq so'zlari " nomi bilan 2022-yilda tuzilgan lug'atning muallifi Feruza Musayevadir. Olimaning bu kitobida kirish qismida olamning dialektal lisoniy manzarasi va nominatsiya masalalari bilan bog'liq ma'lumotlarni ko'rishimiz mumkin. Bu lug'atdagi so'zlar lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosida berilgan bo'lib, lekin transkripsiyada berilish holati uchramaydi. Lug'at o'z ichiga O'zbekistonning ko'plab viloyatlariga xos shevalarni qamrab olgan. Bunda asosan quyidagi mavzularga oid shevalarni ko'proq uchratamiz:

1. Kasb-hunar oid birliklar.
2. Uy-ro'zg'or buyumlari.
3. Ranglar.
4. Hayvonlar.
5. O'simliklar.
6. Cholg'u asboblari.
7. Kasallik turlari.
8. Harakat-holat fe'llari.
9. Kurash sport turi bilan bog'liq.
10. Milliy o'yinlar.
11. To'y marosimlari kabi mavzular bilan bog'liq shevaga xos so'zlar ko'p qismini tashkil etadi.

" O'zbek xalq so'zlari " kitobida ham o'g'uz, qipchoq va qarluq lahjalaridagi so'zlarni bemaol ko'rishimiz mumkin. Bunda so'zlar izohi, asarlardagi dialektizimlar bilan ifodalab berilgan. Masalan, **JO'N I** (Jizzax) To'g'ri. [To'lg'onoy:] Yursa, jo'n yursin. Bo'lmasa terisiga somon tiqib qo'yish qo'limizdan keladi... (To'ra Sulaymon, To'lg'onoy).

KUNDA (Xorazm) Omoch. Tuproqni olgan joyiga tashlab akalarimga qarab buyruq ohangida: – Ho‘kizlarni tayyorlanglar, kunda (omoch) bo‘yintiriqlarni sozlanglar! – derdi. Ayrim hollarda: – Hali biroz bor, tobga kelmabdi, deb boshqa yerga o‘tardi. (Matyoqub Qo‘shjonov, Dagish).

CHUVOQ Quyosh nuri. U yer-bu yerda o‘zini chuvoqda toblab o‘tirgan qariqartanglar, qiy-chuv bilan o‘ynashayotgan bolakaylar ko‘zga tashlanadi. (Luqmon Bo‘rixon, Sirli muallim). Chumolilar chuvoqda yo‘l olar qator-qator, Shunday payt nimani ham tashiydilar iniga. (Bobomurod Erali, Hamal vasfi). Isinib turardim yetim chuvoqda. Bir kuni bir qora ko‘rindi xira. (Salim Ashur, O‘tinchi qiz).

Har bir tilda leksikografik tadqiqotlar borki, o‘sha tilning so‘z boyligini ko‘rsatib turadi. Shuning uchun ham lug‘atchilikka katta e‘tibor qaratilishi lozim. O‘zbek tilining so‘z boyligi xilma-xilligini asoslovchi lug‘atlardan biri bu Zulxumor Xolmonova va Dilnoza Nasriyeva hammuallifligida tuzilgan “ O‘zbek shevalaridagi lakunar birliklar lug‘ati “ nomli kitobdir. “ Lakuna “ lotin tili asosidagi fransuzcha so‘z bo‘lib, “ bo‘shliq, chuqurlik, bo‘sh joy “ degan ma‘nolarni bildiradi. Lakuna – biror bir tilde ekvivalent tushunchaning nomlanmasligi, so‘z shakliga ega bo‘lmasligi natijasida yuzaga keladi. Mazkur lug‘at lakunalarga oid tadqiqotlar, sheva so‘zlari, lakunar birliklar lug‘ati uchun material vazifasini o‘taydi.

Lug‘atdagi misollar yangi o‘zbek transkripsiyasida berilgan bo‘lib, so‘zlarning qo‘llanish hududlari, so‘z izohi, illustrativ namunalar hamda ba‘zi so‘zlarning tasviri ham keltirilgan. Bularni quyidagi misollar orqali ko‘rsak bo‘ladi.

GAVRON (гаврон) xirmon yanchishda ho‘kizlarni haydash uchun ishlatiladigan tayoq (Surxandaryo; X.M).

DASTAK (дастак) - daraxtni kesganda uncha yo‘g‘on bo‘lmagan shoxlaridan kesib olingan 2-3 m. chamasidagi xoda (Qashqadaryo, Qamashi; N.T).

Hozirgi kunda tilimizning so‘z boyligini ko‘rsatib turuvchi asosiy lug‘atimiz bu “ O‘zbek tilining izohli lug‘atidir “. Ushbu manbada ham aynan shevaga xos so‘zlarning berilish holatini ko‘rsak bo‘ladi. To‘g‘ri, nimaga adabiy tilga shevaga xos so‘zlarni aralashtirish holati mavjud, degan savol tug‘ilishi mumkin. Lekin aynan shevaga xos so‘zlar tilimizning ichki manba asosida boyishiga xizmat qiluvchi birliklar hisoblanadi. Bundan tashqari, shevaga xos so‘zlardan badiiy adabiyotda ham milliy koloritni aynan yoritib berish uchun ham keng qo‘llanishi

bunga yana bir asos vazifasini o'taydi. Masalan, **Aytuvli 1** Hurmatli, qimmatli, aziz. Aytuvli mehmon.

2 Dong chiqargan, nomdor. Yig'inda Karim ponsodlardan tortib, Toshkentning aytuvli odamlari bor edi. A.Qodiriy, O'tkan kunlar.

Bu masala bo'yicha Raimnazarova N. " O'zbek tilining izohli lug'atlarida shevaga oid so'zlarning berilishi " nomli dissertatsiya ishini 2023-yilda himoya qilgan.

Xulosa qilib aytganda, yuqoridagi kabi lug'atlarning yaratilishi o'zbek tilining lug'at boyligi oshishiga va shu bilan bir qatorda shevaga xos so'zlarimizning yo'qolib ketish holatlarini oldini olish uchun ham yordam beradi. Keying tadqiqotlarda yanada kengroq ko'lamni qamrab olgan hamda ko'plab mavzularga oid shevalarni hududlararo tarqalishini ko'rsatuvchi, o'g'uz, qipchoq, qarluq lahjalarini fonetik, leksik, morfologik farqlarini aniq chegaralab beruvchi, har bir soha vakillari uchun xos shevalarni mavzulashtirgan hamda o'zbek dialektologik atlasini yaratish kabi tadqiqotlar o'z yechimini kutmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 20-oktyabrdagi PF-6084-son " Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish vat il siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida " gi Farmoni.
2. O'zbek tilining izohli lug'ati. Toshkent, 2006-2008, 5tomlik.
3. O'zbek tili shevalar lug'ati. Toshkent, 1971.
4. Musayeva F. O'zbek xalq so'zlari. Toshkent, 2022.
5. Xolmonova Z., Nasriyeva D. O'zbek shevalaridagi lakunar birliklar lug'ati. Toshkent, 2022.
6. yicha Raimnazarova N. " O'zbek tilining izohli lug'atlarida shevaga oid so'zlarning berilishi ". Termiz, 2023.